

QO'SHMA GAPLARDAGI VOQEALAR O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Yulanova Nargiza Davlatovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

axborot texnologiyalari universiteti

katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada: *qo'shma gap tizimlarining shakllanishi, aytish mumkinki, bevosita nutqiy aloqaning talabi. Nutqiy aloqa maqsadlari uchun mazmunan bosh gaplar ham zarurligi, bu maqsadlarning nima ekanligi umumiy tarzda aytib o'tildi*

Kalit so'zlar: *Lisoniy, subyektiv munosabat, diktum, denotativ, modus, funksional, modal, mazmuniy yadrosi, kompleks, noto'liq gaplar, mazmuniy-sintaktik.*

Tashqi olam hodisalari, ular o'rtasidagi munosabat, so'zlovchining ayni hodisalarga bo'lgan nuqtai nazari (keng ma'noda) kabi masalalar barcha til vakillari uchun mushtarakdir. Lekin bu masalalarning tilda namoyon bo'lishi bilan aloqador muammolar, shubhasizki, har bir til uchun xususiylik kasb qiladi. Shuning uchun ham ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuniy sintaksisi o'rganilar ekan, mazkur mazmunlarning ta'kidlanayotgan mantiqiy asoslarini, o'ziga xos tabiatini chuqur idrok qilish, ayni mantiqiy asoslarning til sathidagi nisbatlanishi bilan bog'liq muammolariga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. So'zlovchi tomonidan fikr ifodasi uchun ayni ergash gapli qo'shma gap (yoki umuman ko'shma gap) shaklining tanlanishi mutlaqo tasodifiy bo'lmaydi. Lisoniy texnika nuqtai nazaridan, albatta, sodda gap o'ng'ayroq. Lekin so'zlovchi fikrni ixcham va ayni chog'da barcha ob'ektiv va subyektiv jihatlari bilan ifodalashga zaruriyat sezganda qo'shma gapga murojaat qiladi. Bir necha voqea va ular o'rtasidagi xilma-xil mantiqiy munosabatlar (maqsad, sabab-oqibat, shart, payt kabi)ni ifodalash uchun axborot beruvchi tomonidan jumlaning ko'shma gap tarzida tuzilishi, xulosa chiqarish operatsiyasiga o'xshaydi. Bunda axborot beruvchi axborotni maxsus mantiqiy ishlovdan o'tkazadi, ya'ni voqealar o'rtasidagi munosabatni baholaydi, aniqlaydi, unga o'z nuqtai nazarini bildiradi va hokazo. Bu mantiqiy operatsiyalarni natijasi sifatida shakllangan qo'shma gapda ayni mazmunlar muayyan darajada aks etadi.

Ma'lumki, modus, modallik so'zlari lotin tilida «usul» ma'nosini bildiradi. Ergash gapli qo'shma gaplarda u quyidagi tizimlarda ifodalanishi mumkin: Men bilamanki,Shunisi ma'qulki, ..., Men ishonamanki, ..., Shen o'ylaymanki, ..., Men sizga to'g'risini aytsam... va hokazo. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, bular... bir necha oydan beri frontga jo'nash xaqida buyruq kutib yotar ekan (A. Qahhor). Biz bilamizki, har bir yangilik qarshilikka uchraydi. (Abdulla Qahhor). Eng ahamiyatlisi shundaki, qandaydir sirli bir kuch bizni shu sodda va to'g'ri so'z ishchini sevib kolishga majbur etadi (F. Musajonov). Ko'rinib turibdiki, har uchchala qo'shma gapda ham bosh gaplar modusni, ya'ni ergash

gaplarda ifodalangan voqealarning subyektiv talqinini ifoda etgan. Rus tilidagi ana shunday qo'shma gaplar haqida gapirib, N. S. Pospelov shunday ta'kidlaydi: Bunday qo'shma gaplarning bosh gap qismi «alohida axborotni ifodalamaydi, balki faqat ergash gapning modallik jihatdan shakllanishi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi, bunda u o'z leksik ma'nosi bilan ergash qismidagi mazmunga so'zlovchining u yoki bu tarzidagi munosabatini ifodalaydi». O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarda modusning ifodalanishi rus tilidagidan bir qadar farq qiladi, ya'ni modusning ifodachisi N. S. Pospelov ko'rsatgan holatdagiday hamisha bosh gap bo'lmaydi. O'zbek tilida modus ergash gap orqali ham ifodalanaveradi: O'tgan o'sha azobli kunim, hozir o'ylab qaragam, hayotimning eng noyob damlari bo'lgan ekan (Asqad Muxtor). Men senga aytsam, xali birov o'z yurtidan ketib ro'shnolik ko'rganmas (Yo. Yakvalxo'jayev). Bir so'z bilan aytganda, u ota bilan onaning jamiki xush fazilatlarini o'zida mujassam etgandi (Yo. Yakvalxo'jayev). Bu gaplardagi ergash gaplar bosh gaplardagi denotativ voqeaning modal talqini ifodasi uchun xizmat qilgan. Demak, ergash gapli qo'shma gaplarning bosh va ergash qismlarida o'rni bilan modus, o'rni bilan denotativ voqea — ob'ektiv mazmun ifodalanaverishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlamoq joizki, modus tushunchasi o'z ichiga bir qator ma'nolarni oladi, xususan, «baho», «ruhiy holat», «taxmin» va boshqalar. Shuning uchun ham qo'shma gaplarda modus ifodalanganda, modus ifodachisi bo'lgan gapning predikati sifatida turli so'zlar ishtirok etishi mumkin. Xususan: o'ylamok, sezmoq, bilmoq, qo'rqmok, xursand bo'lmoq, ma'qullamoq, istamoq, aytmoq, ko'rmoq, yaxshi, yomon, ma'qul, muhim, to'g'ri (ba'zan, fe'l bo'lmagan ayni so'zlar subyektivni ifodalab kelishi ham mumkin) va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.,1990 yil
2. Norimova.A, Maxmudov N. va boshqalar.O'zbek tilining sintaktikasi.-T.1992 yil.
3. Matyuziyev A. O'zbek tilidagi ayrim ergashtiruvchi bog'lovchilarning tarixiga doir; O'zbek tili va adabiyoti,1996 yil,1-son.
4. G'ulomov.A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T.,1997 yil
4. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
5. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
6. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(8), 26-30.



7. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.

8. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. RESEARCH AND EDUCATION, 1(5), 110-115.